

BOLALARDA LIDERLIK QOBILYATINI RIVOJLANISHIDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI

Jamolova Zumrad Farxod qizi

Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti

jamolovazumrad9297@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada til o'rganish orqali liderlik qobiliyatini rivojlantirish borasidagi izlanishlar haqida so'z boradi. Chet tilini o'rganish o'quvchilarga muloqot ko'nikmalarini o'zlashtirishga yordam beradi va ularga global dunyo yangiliklaridan habardor bo'lishga imkoniyat yaratadi. Liderlik qobiliyatini ingliz tili bilan bog'lagan holda rivojlantirish orqali o'quvchilarga guruh bilan ishlash ko'nikmalarini, muammolarga yechim topish va qaror qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishlari mumkin. Quyidagi maqolada til va liderlik sohalarining o'zaro bir-biriga ta'siri haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar. lider, ingliz til va liderlik, shaxsning liderlik qobiliyatini rivojlantirish, kognitiv rivojlanish.

Abstract. This article talks about research on the development of leadership skills through language learning. Learning a foreign language helps students to master communication skills and gives them the opportunity to be aware of the news of the global world. By developing leadership skills by connection with the English language, students can learn the skills of working with a group, finding solutions to problems and making decisions. The following article provides information on the interaction of language and leadership areas.

Key words. Leader, English language and leadership, development of individual leadership ability, cognitive development.

Аннотация. В данной статье рассказывается об исследованиях по развитию лидерских качеств посредством изучения языка. Изучение иностранного языка помогает студентам овладеть навыками общения и дает им возможность быть в курсе новостей глобального мира. Развивая лидерские качества в связи с английским языком, студенты могут освоить навыки работы в группе, поиска решений проблем и принятия решений. В следующей статье представлена информация о взаимодействии областей языка и лидерства.

Ключевые слова. Лидер, английский язык и лидерство, развитие индивидуальных лидерских способностей, когнитивное развитие.

KIRISH

Yurtimiz kelajagi deb, biz yoshlar harakatda bo'lmog'imiz bugungi kunning eng dolzarb masalasidir, Zero, Prezidentimiz SH, M, Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Yoshlar bizning xazinamizdir". Bu ishonchni oqlash uchun jamiyatimizga o'z fikriga, so'ziga ega, eng muhimi o'zi bilan birga boshqa yoshlarni ham ergashtira oladigan liderlarni tarbiyalab bormog'imiz zarur. Bunday yoshlar mamalakatimizda tobora isloh qilinib, rivoj topayotgan har qaysi sohaning yetuk mutaxassisi bo'lishi mumkin. Liderlik shaxs hayoti davomida har qanday holatda o'zining prinsipi orqali yutib keta oladi. Hozirgi davr talabidan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkinki, yangi renessansni liderlik qobiliyatini rivojlantirgan holda yoshlarni faolligini oshirib borishimiz, ularda yangi g'oya va takliflarni shakllantirib, amalga tatbiq etishimiz darkor. Ingliz tili, global kommunikatsiya vositasi sifatida, bolalarni rahbarlikka tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy dunyoda ingliz tilini bilish, nafaqat ilmiy va kasbiy rivojlanish uchun, balki turli madaniyatlar va mamlakatlar o'rtasida ko'priklar qurishda ham asosiy vosita hisoblanadi. Bolalarga ingliz tilini o'rgatish orqali ularning dunyoqarashi kengayadi, yangi imkoniyatlar

ochiladi va kelajakda rahbar sifatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur bo'lgan kommunikativ ko'nikmalar shakllantiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish usullari haqida ma'lumot beruvchi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erta yoshdan boshlab chet tilini o'rganish bolalarning nutqini rivojlantirishga, shuningdek, ularning ijtimoiy va madaniy tushunchalarini boyitishga yordam beradi. Shu bilan birga, ingliz tilini o'rganish bolalarni rahbarlikka tayyorlashning asosiy talablaridan biri sifatida ko'riladi, chunki bu ularning kelajakda el-yurt rivoji uchun hissa qo'shish qobiliyatlarini oshiradi.[5, B. 303]

O'zbekistonda ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash tizimida islohotlar amalga oshirilmoqda, bu esa kelajakda ingliz tilini o'qitish me'yorlarini doimiy ravishda yaxshilashga va xalqaro standartlarga muvofiq keladigan ta'lim standartlarini o'rnatishga qaratilgan. Bu islohotlar natijasida, ingliz tilini biladigan yoshlar nafaqat o'zlarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishlarida, balki jamiyatdagi rahbarlik lavozimlarida ham muvaffaqiyatli bo'lishlari kutilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Liderlik (inglizcha: leader — yetakchi, boshlovchi so'zidan) — umumiy bir ishni bajarishda boshqalarning yordami va harakatini birlashtiruvchi ijtimoiy ta'sir jarayoni. Liderlik bu alohida shaxs, shu bilan birga guruhga ta'sir ko'rsata olish qobiliyati bo'lib, barchaning harakatlarini tashkilot maqsadlariga erishishga yo'naltiradi[13]. Ma'lum muammoni yechishda guruh liderni ilgari suradi. Liderlesiz hech bir guruh faoliyat ko'rsata olmaydi. Liderlarni ma'lum maqsad uchun kishilar guruhini birlashtira oladigan shaxs sifatida qarash mumkin. Liderlik bo'yicha turlicha qarash, turlicha fikrlar mavjud. Olimlar bu haqida ya'ni zamonaviy menejmentda liderlikni tavsiflashda yagona yondashuv mavjud emas: - Liderlik hukmronlikning bir turi bo'lib, uning asosiy xususiyati yuqoridan pastga yo'naltirilganligidir. U bir yoki bir nechta shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan hokimiyat sifatida namoyon bo'ladi

Ingliz tilini o'rgatish va liderlik qobiliyatini rivojlantirish o'rtasidagi aloqa juda muhimdir. Yoshlar ingliz tilini o'rganish orqali o'z til boyliglarini yanada boyitishi, yangi g'alabalar olishi va yangi g'oyalarni yaratishi mumkin. To'g'ri yo'nalishni aniqlash uchun o'quvchilarning individualligiga va guruhning umumiy maqsadlariga asoslab tayyorlangan dasturlar va mashg'ulotlar yaratish juda muhimdir. Bu usullar o'quvchilarga muvaffaqiyatli liderlar bo'lish sohasida yordam berishi mumkin. Ingliz tilining lider shaxsning kamolotga yetishida o'rni beqiyosdir. Ingliz tili dunyo miqyosida biznes, ilm-fan, va texnologiya sohalarida asosiy muloqot vositasi hisoblanadi. Shu sababli, ingliz tilini bilish liderlar uchun global, ilmiy va texnologik yangiliklardan habardor bo'lib borish, xalqaro taqdimot va konfirensalarda qatnashish, jaxondagi ta'lim va o'qitish imkoniyatlaridan foydalanish va barcha hodimlar bilan samarali muloqot qilishda katta afzalliklarni taqdim etadi. Shunday ekan, til bilish liderlarga kengroq imkoniyatlar eshigini ochadi va ularning professional va shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi.

Til shaxs rivojlanishida yuksak o'rin ekallashi to'g'risida bir nechta olimlarning asarlarida ham keltirib o'tilgan. Nelson Mendelaning avtobiografik asari "Long Walk to Freedom" kitobida o'zining liderlik qobiliyatini shakllanishida ingliz tilining ahamiyatini yorqin tasvirlaydi. Ushbu kitobda Mendela ta'lim olish, siyosiy aloqalar o'rnatish, xalqaro jamiyat bilan muloqot qilish uchun ingliz tilini muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi. U chet tili orqali g'oyalarni keng targ'ib etish, xalqaro obro'-e'tiborini oshirish imkoniga ega bo'lganligini aytib o'tgan. [1]

Shu kabi mashhur asarlardan biri "Becoming" asari bo'lib, u kitobda AQSh sobiq prezidenti Barak Obama ingliz tilini mukammal egallagani va bu uning liderlik salohiyatini qanday rivojlantirgani haqida yozadi. Prezidaent kasbiy hayotda muvaffaqiyatga erishish, xalqaro maydonda o'z o'rnini mustahkamlash uchun ingliz tilidan samarali foydalanganini qayd etgan.

Bundan tashqari, Jon Kennadining "Prifiles in coureage" kitobida uning liderlik yo'lidagi nutqlarida ingliz tilidan qanday mohirona foydalangani tahlil qilinadi. U til orqali odamlarni qo'zg'atish, ularni maqsadga da'vat etish qobiliyatlariga ega bo'lganligini ko'rsatib beriladi. Demak, ko'plab yirik siyosatchilar, jamoat arboblari va liderlar o'z kitoblarida ingliz tili va liderlik o'rtasidagi chambarchas aloqani ochib beradilar. Ular ushbu bog'liqlikning ahamiyatini, uning liderlikni yuksaltirish va kuchaytirishdagi o'rnini yorqin ifodalaganlar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Erta yoshdan ingliz tilini o'rganish liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda ko'plab afzalliklarni taqdim etadi. Misol uchun bolalikda til o'rganish miyaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar yoshligida tilni o'rganish qobiliyati yuqori bo'ladi va ularga bir nechta tilni yaxshi o'zlashtirish imkonini beradi. Bu esa keyinchalik liderlik qobiliyatlari, jumladan, muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ingliz tilini puxta egallash liderlar uchun bir qator muhim imkoniyatlar yaratadi. Birinchidan, bu ularni xalqaro miqyosdagi turli platforma va aloqalarga kirish imkonini beradi. Liderlar xalqaro konferensiya, loyiha, kelishuvlar va boshqa faoliyatlarda faol ishtirok etish, global jarayonlarga qo'shila olishlari mumkin. Ikkinchidan, ingliz tili orqali liderlar dunyo miqyosida sodir bo'layotgan ilmiy, texnologik, siyosiy yangiliklardan, so'nggi tadqiqotlardan, innovatsiyalardan muntazam xabardor bo'lish imkoniga ega bo'ladilar. Bu ularning doimo dolzarb va yangi ma'lumotlarga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Uchinchidan, ingliz tilini yaxshi bilish yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, odamlar bilan samarali muloqot o'rnatish, ularni bir maqsad yo'lida birlashtirish imkonini beradi. Bu esa, liderlik uchun eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi.[17]

Shuningdek, tilni chuqur o'rganish liderning shaxsiy va kasbiy o'sishi uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. Ta'lim olish, malaka oshirish, yangi bilimlar va ko'nikmalar egallash jarayonlarida til muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, liderlik va ingliz tili bir-birini to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Liderlar ingliz tilini chuqur o'rganish orqali o'z global ta'sir va mavqeini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri - ingliz tili xalqaro muloqot, aloqa, hamkorlik, bozorlar, innovatsiya va virtual sherikliklar uchun asosiy vositaligidir. Ingliz tilini mukammal egallagan rahbarlar xalqaro miqyosda samarali aloqalarni yo'lga qo'yish, yangi imkoniyatlarni ochish, jamoatchilik qo'llab-quvvatlanishiga erishish va innovatsion g'oyalarni targ'ib qilish orqali o'z ta'sirini kuchaytira oladilar. Shu bilan birga, raqamli dunyo shartlari uchun ham ingliz tilini yaxshi bilish muhim ahamiyatga ega[8, B.78].

XULOSA VA TAVSIYALAR

Shunday qilib, liderlar uchun chet el tillarini, ayniqsa ingliz tilini yaxshi o'rganish va undan samarali foydalanish quyidagi asosiy afzalliklarni beradi:

Birinchidan, chet el tillari bilimi liderlarning xalqaro tashkilotlar, platformalar va jamg'armalar bilan faol hamkorlikka kirishish imkoniyatlarini beradi. Bu esa ularning global miqyosdagi xalqaro ta'sirini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, chet tillari bilimiga ega liderlar yangi texnologiyalar, ilmiy-texnikaviy yangiliklar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va axborotlar bilan tezkor va samarali tanishishi mumkin. Bu esa davlat siyosati va qarorlarida ularning innovatsion yondashuv va yechimlarini qo'llash imkoniyatini kengaytiradi.

Uchinchidan, chet tili mahorati liderlarning yetuk diplomatik ko'nikmalarini oshiradi. Bularga o'z fikrini aniq va ta'sirchan ifoda etish, xorijiy hamkorlarga nisbatan hurmat va hamjihatlik munosabatlarini saqlash, xalqaro muzokaralar olib borish kabilar kiradi. Bu esa ularning strategik qoidalari va xalqaro munosabatlarida muvaffaqiyatli bo'lishlariga imkon beradi.

To'rtinchidan, chet el tili bilimi liderlarni zamon talablariga moslashib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishlarini ta'minlaydi. Bu esa raqamli dunyo bilan integratsiyalashuvlarini yengillashtirib, global ta'sirlarini kuchaytiradi.

Beshinchidan, chet tilini puxta biladigan liderlar xalqaro oliy ta'lim muassasalari, ekspert guruhlar va fikrlar liderlar bilan muntazam muloqot qilish va ilg'or tajribalarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning intellektual va yetakchilik salohiyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, liderlar tomonidan chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini mukammal o'zlashtirish va undan samarali foydalanish ularning global aloqalarni kuchaytirishning va nufuzini mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi.

REFERENCES:

1. D. Hukumov. Shaxsda liderlikni namoyon bo'lishi //Central asian research journal for interdisciplinary studies (Carjis) //Universal Impact Factor: 7,1 ISSN:2181-2454// DOI: 10.24412/2181-2454-2022-1-206-213 VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2022;
2. Elmurodov U.Yu. Zamonaviy rahbar shaxsida liderlik qobiliyatini rivojlantirishda rahbar boshqaruv uslubining o'rni// Tarbiya ta'lim jarayonining ijtimoiy hamda pedagogik psixologik muammolari; Taklif va yechimlar Toshkent 2022 –B.162-171;
3. Elmurodov U.Yu. Boshqaruv tizimi quyi bo'g'inlarida rahbarlik faoliyatini takomillashtirish//."XXI asr axborot asrida –axborot psixologik xavfsizligi masalalari" Andijon 2022 –B 130-134;
4. Elmurodov U.Yu. Zamonaviy rahbar shaxsining psixologik kompetentligini tizimlashtirish//Oilaviy munosabatla destruksiyasining psixologik tadqiqi: muammo va yechimlar Termiz 2022.- № 2, -B. 108-110;
5. Elmurodov.U.Yu. Development of leadership skills in a modern leader// International conference on new scientific methodologies Amerika 2022 B-303-305;
6. Elmurodov.U.Yu. Boshqaruv tizimida liderlik qobiliyatining shakllanishi ijtimoiy-psixologik muammolari//. Respublika ko'p tarmoqli Ilmiy tadqiqotlar sammiti Toshkent 2022. – B 230-233;
7. Elmurodov U.Yu. Boshqaruv tizimida rahbarlik va liderlik mohiyatining psixologiya sohasi tadqiqotlarida o'rganilganlik holati// Ilm ham jamiyat 2022.-№2 -B. 138-140. (19.00.00 № 2);
8. Goleman, D. (2000). Leadership that gets results. Harvard Business Review, 78(2), 78-90.
9. Isakova Nozina. "Boshqaruv psixologiyasida liderlik masalasining zamonaviy muammolari" // Bitiruv malakaviy ishi.: Toshkent – 2014
10. Lussier, R. N., & Achua, C. F. (2015). Leadership: Theory, application, & skill development (6th ed.). Cengage Learning.
11. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: "O'zbekiston", 1998-yil. -61 b.;
12. Kouzes, J. M., & Posner, B. Z. (2017). The leadership challenge (6th ed.). Wiley.
13. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. –Chet tilini o'qitishda yordamchi vositalardan foydalanish||. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
14. Northouse, P. G. (2019). Leadership: Theory and practice (8th ed.). SAGE Publications.
15. Salaxutdinova M.I. Rivojlanish va yosh psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Samarqand, Samdu, 2020. – 156 b.;
16. Zhe Dong, Gijs Huitsing, René Veenstra, "Positive and Negative Leadership in Late Childhood: Similarities in Individual but Differences in Interpersonal Characteristics"//Central asian research journal for interdisciplinary studies (CARJIS) //Universal Impact Factor: 7,1 ISSN:2181-2454// DOI: 16 .24412/2181-2454-2023-1-206-213 VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2023.